

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA №E180305226**

1. Loyiha turi: **Shartnoma**
2. Loyiha nomi: Bog‘ot tuman tibbiyot birlashmasi va “MIRZAMEDSAVDO” MCHJ o‘rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi
3. Loyiyaning ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:  
**Bog‘ot tuman tibbiyot birlashmasi** tomonidan 2022-yil 31-yanvarda ishlab chiqilgan va 2022-yil 31-yanvar kuni dasturga kiritilgan.  
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik xizmat  
ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



**D.Matiyazov**  
01.02.2022 yil

# DORI DARMON Yetkazib Berish Shartnomasi № 31/01-I

Bog'ot shaxarchasi

«31» «yanvar» 2022 yil

«MIRZAMEDSAVDO» MChJ keyingi o'rinlarda "Yetkazib beruvchi" deb yuritiladi. O'zining (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi rahbar Madjidov M.M. nomidan, bir tomondan va Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, uzining (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi rahbari A.Saidov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. Shartnomaning Predmeti

1.1. Yetkazib beruvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikasiyaga asosan Buyurtmachiga mulk qilib topshirish. Buyurtma beruvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

No	Tovar (Mahsulot) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi
1	Desmopressin kapli v nos 0,1mg/ml fl. 5ml	Flak.	35	185000	6 475 000
Jami:					6 475 000

1.2 Mazkur jadvalda ko'rsatilgan tovar(mahsulot)ni yetkazib berish muddati: «28» «fevral» 2022 yilgacha

## 2. TO'LOV Shartlari

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **6 475 000 (Olti million turt yuz yetmish besh ming)** so'mni tashkil etadi

2.2. Yetkazib beriladigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan to'lov miqdori **1 942 500 so'mni**, ya'ni, belgilangan summaning 30 foizini tashkil qiladi va bu oldindan to'lov **2022 yilning** fevralgacha amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori esa **4 532 500 so'mni**, ya'ni, kelishilgan summaning 70 foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so'ng 2022 yil **"28" fevralgacha** amalga oshiriladi.

2.3. To'lov shakli naqd pulsiz pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

3.1.1. Tovar (mahsulot)ni shartnoma talablariga javob beradigan holatda Buyurtmachiga o'z vaqtida topshirish.

3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruhi uchun amaldagi standartlarga muvofiq kelishi kerak.

3.1.3. Yetkazib beruvchi to'plamda yaroqsiz, sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar (mahsulot) mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni sifatlisiga almashtirish yoki ushbu shartnomaning 1.2.-bandiga muvofiq sifati lozim darajada bo'lmagan tovarning pulini qaytarib beradi.

3.1.4. Transport xarajatlarini o'z hisobidan to'laydi.

3.1.5. Yetkazib beruvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tovar (mahsulot)ga bo'lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butlanishi bo'yicha qabul qilib oladi.

3.2.2. Sifati lozim darajada bo'lmagan tovar keltilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida sotuvchini xabardor qiladi.

3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to'lash.

## 4. Shartnomaga O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

4.1 Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va tomonlar uni imzolaganlaridagina haqqoniydir.

4.2 Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.

4.3 Shartnoma qonunchilik o'zgariganda, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

## 5. TARAFI LAR N I N G JAVOBGARLIGI

5.1 Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi:

5.2 Tovarni to'liq topshirmaganlik uchun Yetkazib beruvchi har bir kechiktirilgan kuniga topshirilmagan tovar qiymatining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, lekin ushbu summaning 50 % dan oshib ketmasligi lozim.

5.3 Sifat bo'yicha shartnoma shartlariga javob bermaydigan tovarni topshirganlik, shuningdek butlanmagan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.4 Jo'natilgan tovarlarga oid to'lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxasini belgilangan muddatda yubormaganlik yoki tovarlar jo'natilganligi to'g'risidagi boshqa axborotni taqdim etmaganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etilmagan har bir holat uchun yetkazib berilayotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.5 Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0,4 % miqdorida, lekin ushbu summaning 50 % dan oshmaydigan miqdorda o'zining mahsus hisob raqamidan penya to'laydi.

5.6 Nustoykani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

## 6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1 Mazkur shartnoma **2022 yil «30» dekabrgacha** amalda bo'ladi.

6.2 Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxada beriladi.

6.3 Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda;
- Fors-Major xohatlarida

## 7. SHARTNOMANING QONUNY KUCHGA KIRISHI

7.1 **Amalga kiritilgan** 2014 yil 1 yanvardagi byudjet kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining G'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan byudjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shartligi va faqat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kirishi nazarda tutilgan

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH

8.1 Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarilmagan taqdirlarida O'z R. Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

8.2 Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sudi tartibida hal qilinadi.

8.3 Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilmadi, kelishish imkoni bo'lmaganda esa iqtisodiy sudda hal qilinadi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR

Mazkur Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va ko'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va xar ikkala taraflar orkali imzolanishi kerak

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Taminotchi»  
OOO "MIRZAMEDSAVDO"  
(yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: g.Buyara ul.Navoi shoy 15.2  
Tel. faks\_ 226 17 30 , 226 14 11  
X R\_ 20208000100733073001  
Bank nomi "QISHLOK QURILISH BANK"  
MFO 00115 INN : 304674338  
OKED:21200

Raxbar \_\_\_\_\_ Madjidov M.M.



«Buyurtmachi»

Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi  
Xorazm viloyati Bog'ot shaharchasi  
Toshkent №2  
Tel.faks: 62 31 52 531  
ibn hr: 100022860332047072110054001  
INN 200426871 OKONN: 91511  
Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
Yagona G'azHR 23402000300100001010  
Bank: Markaziy bank Toshkent sh bosh XKMM  
MFO : 00014 INN: 201122919

